

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA YOSHLARIMIZNI TARBIYALASHNING MUHIM JIHATLARI

Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi: Ahmedova Gulnoza

Urganch davlat pedagogika instituti talabasi: Avezova Mastura

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk pedagog Abdulla Avloniy asarlari orqali farzandlarimizni tarbiyalashning muhim jihatlari va usullari haqida so‘z borgan. **Kalit so‘zlar:** Tarbiya, odob, axloq, vatanparvarlik, tarbiyali shaxs, axloqiy sifatlar, yaxshi xul, yomon xulq, ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat.

Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi bilan vujudga keldi va u bilan birga taraqqiy etdi. Jamiyat o‘zgarishi bilan tarbiya ham o‘zgarib bordi. Tarbiya turli xil davrlarda va turli xil jamiyatlarda o‘zgarib bo‘lib qolmaydi va zamon o‘zgarishi bilan u ham o‘zgarib boradi. Tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, shakli va usullari bilan har bir tarixiy davrda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Insonlarga tarbiya har bir davrning buyuk pedagoglarining qarashlari va asarlaridan berib boriladi. Shu jumladan, XIX asr yoshlari ham va bugungi kun yoshlari ham shu 127 davrdagi Abdulla Avloniy deb atalmish buyuk pedagog olimimizning ijodiy meroslaridan ma’naviy ozuqa olib, shakllanib bormoqdamiz. Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan, o‘z asarlarida o‘zbek xalqining eng yaxshi an’analarini ta’lim-tarbiyaga, axloqqa oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir.

Axloq - kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o‘rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni Axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan - johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido - yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki mukrbil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan

qalb, aql bilan aqlsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o‘zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so‘nishi mumkin.

Har bir xalqning yoki millatning o‘ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy Axloq me‘yorlari ham bor. Bunday axloq me‘yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Axloqning shakllanishida va uning ijtimoiy o‘rnida dinning ahamiyati katta. Dinning asosiy maqsadlaridan biri, insonga yomonlikning zararlarini bayon qilish hamda yomon yo‘lga kirib ketganlarni to‘g‘ri yo‘lga da‘vat etishdir. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari barcha pedagog va ruhshunoslar uchun qo‘llanma sifatida foydalanuvchi asar bo‘lib qoldi.

Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” – axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu xulqlar majmuidir. Xulq esa ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq yezgulik va 128 oliyanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadilar. Lekin bular har bir insonda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, shakllanmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma‘lum bir sharoit, tarbiya kerak deb ta‘kidlaydi. “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari boshidan oxirigacha insonni ta‘limtarbiyaga, axloqli bo‘lishga chorlovchi asardir. Asarning boshi ham aynan “Axloq” mavzusi bilan boshlanadi.

AXLOQ. Insonlarni yaxshilikga chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur.

YAXSHI XULQ, YOMON XULQ. Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikga tavsif bo‘lub, «yaxshi xulq» agar tarbiyatsiz o‘sub, yomon ishlaydurgan bo‘lub ketsa, yomonliqga tavsif bo‘lub «yomon xulq» deb atalur. Hayotning mazmunini to‘g‘ri tushuntirish, farzandlarga odob-axloqni o‘rgatish, ezgu ishlarga undash xalq pedagogikasining yuqorida ta‘kidlangan tarbiya metodlaridan foydalaniladi. O‘git va nasihat metodi xalq og‘zaki ijodining turli janrlarida o‘z aksini topgan. Farzandlarni yaxshi xulqi-odobi, yaxshi o‘qishi, yaxshi inson bo‘lib yetishi uchun rahmat aytish, duo qilish, yaxshi tilak-istak, rag‘batlantirish va mukofotlash hozirgi kunda ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ta‘lim bilan tarbiya bir - biri bilan bog‘liq bir butun jarayon ekanligini ta‘kidlaydi-A.Avloniy.

U yana dars va tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir - biridan ayriilmaydurgan, birining vujudi biriga bog‘langan jon ila tan kabidir. Inson, uning

har tomonlama uyg'un kamol toptirish va farovonligi, shaxs manfaatlarini Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin! (Avesto). Avvalombor, tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi, tarbiya nazariyasi 129 o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sosiologiya, etika, estetika huquqshunoslik, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. (Tarbiya nazariyasi o'z navbatida pedagogika fanining boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, pedagogika tarixi, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir). Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy shunchalik ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi. “Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak” - deb ta'kidlaydi.

Hamma davrning ilg'or kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Zardusht, Muhammad al-Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy, Maxmud Koshg'ariy, Shayx Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Burxoniddin Zarnujiy, Burxoniddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Havoiy, Zaxiriddin Bobur, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbayada deb bilganlar. Tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishga, uning atrofdagi dunyoga, jamiyatga, odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlari doirasinn vujudga keltirishga va kengaytirishga qaratilgan.

Tarbiya jarayonini mashhur pedagog A.Avloniy “Al-xosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, - yo mamot, yo najot, - yo halokat, yo saodat, - yo falokat masalasidur” deb ta'riflagan. Ushbu so'zlar orqali ham ko'rishimiz mumkinki tarbiya har qanday vaziyat, har qanday turmush tarzida va har qanday zamonda alohida e'tibor aratilganliginiyam ko'rishimiz mumkin va yuqorida keltirib o'tgan edik. Tarbiya uzoq davom etadigan va aslida uzluksiz jarayon bo'lib, bu jarayon bola maktabga kelishidan ilgariroq boshlanadi va butun umr bo'yi davom etadi. Tarbiya ko'pgina sabablarga, o'quvchilarnng individual-tipologik tafovvutlarga, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasiga, shaxsiy faolligiga bog'liq. Inson tarbiyasi bilan ajralib turadi

shunday ekan insonni tarbiyasi orqaqli uning oilasidagi muhitini 130 va ota-onasini unga bergan tarbiyasini ham bilib olishimiz mumkin.

Tarbiya bu insonni libosi. Shunday ekan vatanimizda aqlli,tarbiyali yoshlar kerak va ular kelajakda vatanimizga o‘z hissasini qo‘shadi va yurtimiz yanada yuksaladi. Yoshlarga ma’naviyatning ma’no-mazmunini, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tushintirishga, ruhiy-ma’naviy oziq berish, dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladi. Maktablarda ham o‘quvchilarning tarbiyasini yaxshilashga, ularni namunali xulqqa, axloqiy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, ma’naviy tarbiyaning mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo‘llanma va tavsiyalar tayyorlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni yuqorida ko‘rsatilgan usullar yordamida ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalash barkamol avlodni shakllantirishdagi muammolarni bartaraf etishi mumkin. Farzand tarbiyasi hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Farzandlarni tarbiyasi eng avvalo oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda ota-onalar o‘z ishlari bilan bo‘lib farzand tarbiyasiga e’tibor berishi kamayib ketmoqda. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan maqol ham bejis emas. Yurtimizda sodir bo‘layotgan jinoyatlarni ko‘pini yoshlar tashkil etmoqda.Bu esa ota-onalarning bolalariga befarqligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev nutqi. O‘qituvchi va murabbiylarni bayram bilan tabrigi. 2022. 30. 09.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun.
3. Hayitov, A. I., & Miltikboyeva, Z. (2022, May). Methods of organization of native language classes in primary classes on the basis of interactive methods. In E Conference Zone (pp. 11-13).

Research Science and
Innovation House

